
TOSHLOQDA AHOLIGA YANA BIR QULAYLIK YARATILDI

Toshloq tumani markazida aholiga bank xizmatlarini ko'rsatish borasida yana bir qulaylik yaratildi. Bugun "Agrobank" Farg'ona viloyati Boshqarmasining Toshloq filiali tomonidan "Smart ofis" aqlli shoxobchasi foydalanishga topshirildi.

"Smart ofis"- aqlli shoxobcha bo'lib, bank xodimlari ishtirokisiz 24/7 rejimida faoliyat yuritadi. Mazkur shoxobchada barcha turdagi bank operatsiyalari avtomatlashtirilgan holda xizmat ko'rsatadi. Aqlli shoxobchaga kartomat, avtomatlashtirilgan depozit mashina (ADM), video-teller mashinasi (VTM), bankomat, infokioska hamda Touchscrean (sensorli ekran) qurilmalari joylashtirilgan.

"Smart ofis"- aqlli shoxobchasining ochilish marosimida tuman hokimini birinchi o'rinbosari Kamoliddin Umarov, bank xodimlari hamda aholi vakillari ishtirok etdilar. Ular shoxobchada yaratilgan imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdilar.

2023-10-23 15:45:08